




BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



BUXORO VILOTATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-FEVRAL (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 65-223-80-42
www.buxstat.uz

Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3 215,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* 98,6 % ni tashkil etdi.



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2023- yilning yanvar-fevral oylarida 1 613,4 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,1 % ni ko'rsatmoqda.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 2 914,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,7 % ni tashkil etdi.


Hajmi, mlrd.so'mda



FHI, % da






Ulushi, % da





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, hududlar kesimida

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 116,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 3,6 % ga to'g'ri keldi.


yanvar-fevral
mlrd. so'mda



yanvar-fevral
FHI, % da



Yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha (O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-fevral	2023-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	323,0	133,0	-190,0
Gips, t.	14 711,0	73 800,0	59 029,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	16 750,5	23 101,2	6 350,7

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarish hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Ishlab chiqaradigan sanoat

2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 914,4 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 90,7 % ini tashkil etdi.


yanvar-fevral
mlrd. soʻmda




yanvar-fevral
FHI, % da



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2022- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,6 % (0,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 36,4 % (40,2 %) va quyi texnologiyalida – 62,0 % (58,9 %) kuzatildi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 28,6 % (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 104,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 33,9 % (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 89,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,4 % (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 101,8 %) ni tashkil etdi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarish hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 2,8 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 51,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,4 % (2022- yilning yanvar-fevral oyilarga nisbatan fizik hajm indeksi 100,1 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 198,8 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 19,4 % ga ko'paygan), 1 003,0 ming litr aroq mahsulotlari (14,8 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Mazut, ming t.	13,6	8,4	-5,2
O'simlik yog'i (tozalangan), t	1 048,0	733,0	-315,0
Paxta tolasi, t	25 786,0	21 049,0	-4 737,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	13 674,5	6 411,9	-7 262,6
Paxta chigiti, t.	36 238,0	32 788,0	-3 450,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarish hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



Metallurgiya sanoati




2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 3,5% ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 13,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 100,7 % ga oshgan.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % bo'lib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 48,5 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 89,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi. 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 118,8 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlari ishlab chiqarish



2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,4 % bo'lsa, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi 1,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 687,5 mlrd. so'm kuzatildi.


2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,7 % ga to'g'ri keldi.

Mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish



2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni bo'lib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 30,9 % ni a ishlab chiqarish hajmi 43,7 mlrd. so'm ekanligi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ishlab chiqarishning ulushi 1,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,7 % ekanligi kuzatildi.




To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2023- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 10,8 % ga kamaydi bo'lsa, ishlab chiqarish hajmida 1 090,8 mlrd. so'm kuzatildi.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 119,5 % ni tashkil etgan.



Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallar, qoq'oz va qoq'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish




2023- yilning yanvar-fevral oylarida qoq'oz va qoq'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 %, fizik hajm indeksi 90,6 % ni, ishlab chiqarish hajmida esa 26,4 mlrd. so'm kuzatildi. 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 36,3 % ni, fizik hajm indeksi es 85,6 % ga to'g'ri keldi.





Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish




2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 100,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 43,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni fizik hajm indeksida esa 75,6 % kuzatildi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 28,6 % ni, fizik hajm indeksi 104,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 917,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 30,2 % ni fizik hajm indeksi esa 67,2 % ni tashkil etgan.



Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish





2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 84,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmida 0,6 mlrd. so'm kuzatildi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni fizik hajm indeksi esa 73,0 % ga to'g'ri kelgan.

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,9 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 103,0 %ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 101,1 %ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1,2	1,3	0,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	218,8	221,1	2,3


(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



Elektroenergiya





Issiqlik energiyasi



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ga) to'g'ri keldi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 30,2 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 27,3 % ga pasayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-fevral	2023-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	2 521,1	3 294,8	773,7
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	82,7	60,1	-22,6

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 848,3 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-fevral oylari mos davriga nisbatan 103,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 26,4 % ga to'g'ri keldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




2023- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatida 524,3 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,5 % ga oshdi va 324,0 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,1 % ga yetdi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 61,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 38,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 109,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 111,0 % ga yetdi.


Nooziq-ovqat mahsulotlar




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 425,6 ming so'm bo'ldi.

yanvar-fevral
ming. so'mda





yanvar-fevral
o'sish sur'ati, % da



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 848,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-fevral oylari mos davriga nisbatan 103,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 26,4 % ga to'g'ri keldi.

yanvar-fevral
mlrd.so'mda





Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida
iste'mol mahsulotlarining ulushi

yanvar-fevral
o'sish sur'ati, % da



Viloyatda nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Buxoro viloyatida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmi 324,0 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 97,1 % ni tashkil etdi.




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Viloyatda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Buxoro viloyatida oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmi 521,3 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2023- yil 1- mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 681 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 131 tasi yangi tashkil etilgan korxonalar sirasida kiradi.

Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi


(2023- yil yanvar- fevral oylarida)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 209,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,6 % ni tashkil etadigan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 33,1 % ni tashkil etgan.





ЎЗБОҚИСТОН ҲУҚУҚДАШУМАРИ



UZSTAT

ЎЗБЕКИСТАН ҲУҚУҚДАШУМАРИ



UZSTAT